

AMENOREYA SABABI VA TURLARI

Jaqsimuratova Dilaram Tatlimuratovna,

Jaqsimuratova Xurliman Tatlimuratovna

Assistent^{1,2}, Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Amenoreya — bu reproduktiv yoshdagi ayollarda uzoq muddat davomida hayz ko'rmaslik holat bo'lib, mustaqil kasallik turiga kirmaydi. Shu bilan bir qatorda amenorey organizmda muayyan buzilishlarni ko'rsatadigan alomat bo'lib hisoblanadi. Hayz ko'rmaslik sabablariga qarab, amenoreya birlamchi va ikkilamchi turlarga bo'linadi. Bunday holatga duch kelgan ayollar uchun bu nimadan kelib chiqishini va qanday davolash usullari mavjudligini tushunish muhimdir.

Amenoreyaning ikki asosiy turi mavjud:

- Birlamchi amenoreya — qizda 16–17 yoshgacha birinchi hayz (menarx) boshlanmagan bo'lsa.
- Ikkilamchi amenoreya — ilgari muntazam hayz ko'rgan ayolda 3–6 oy va undan ortiq muddatga hayz to'xtashi.

Sababga qarab amenoreya boshqa belgilar bilan kechishi mumkin: vazn ortishi, soch to'kilishi, qorin pastida og'riq, teri o'zgarishlari, kayfiyat o'zgarishlari va boshqa gormonal yoki fiziologik buzilishlar alomatlari.

Birlamchi amenoreya sabablari - reproduktiv tizim rivojlanishidagi buzilishlar yoki gormonal muammolar bilan bog'liq.

1. Genetik va tug'ma anomaliyalar: Terner sindromi (X-xromosoma anomaliyasi), Yumurtaliklar rezistentlik sindromi, Bachardon yoki qin yo'qligi (Mayer-Rokitanski-Kyuster sindromi)

2. Gormonal buzilishlar: Gipofiz yoki gipotalamus yetishmovchiligi (gormonlarni boshqaruvchi markazlar), Giperandrogeniya — erkak gormonlarining ortiqcha ishlab chiqarilishi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

3. Tana vazni bilan bog‘liq muammolar: Juda ozg‘inlik yoki anoreksiya — estrogen ishlab chiqarilishini to‘xtatishi mumkin, Ortiqcha vazn (semizlik) ham gipotalamus faoliyatini buzishi mumkin

4. Intensiv jismoniy yuklama: Sportchilar va gimnastlarda yog‘ to‘qimasi kamligi va og‘ir mashg‘ulotlar tufayli hayz kechikishi mumkin

Ikkilamchi amenoreya sabablari - ko‘proq tashqi va ichki omillar natijasida yuzaga keladi, ular gormonal muvozanat va tuxumdonlar faoliyatiga ta’sir qiladi.

1. Gormonal buzilishlar: Polikistoz tuxumdon sindromi (PTTS) — eng keng tarqalgan sabablardan biri, Tuxumdonlarning erta faoliyatdan chiqishi (erta klimaks), Prolaktin darajasining oshishi (giperprolaktinemiya)

2. Jismoniy va ruhiy charchoq: Stress, depressiya, asabiy zo‘riqish gormon ishlab chiqarilishini susaytiradi, Xronik charchoq sindromi

3. Keskin vazn yo‘qotish:Qattiq dietalar va ochlik gipotalamo-gipofizar tizimda buzilish keltirib chiqaradi

4. Ortiqcha jismoniy yuklama:Faol sport bilan shug‘ullanuvchi ayollarda yog‘ miqdori kamayib, hayz davrida uzilishlar bo‘ladi

5. Dori vositalari qabul qilish:Kontraseptivlar (ayniqsa, in’ektsiya yoki implantat shaklidagilar), Antidepressantlar va neyroleptiklar, Prolaktin darajasini boshqaruvchi dori vositalari

○ Endokrin kasalliklar: Qandli diabet, Qalqonsimon bez kasalliklari (gipotireoz, giperterioz)

6. Ginekologik kasalliklar: Bachadon miomasi, endometrioz, Bachadonda bitishmalar (Asherman sindromi) — qirib tashlashdan so‘ng

7. Homiladorlik, emizish va klimaks: Amenoreya ba’zan tabiiy holatlar — homiladorlik, emizish yoki klimaks bilan bog‘liq bo‘ladi, Amenoreyani davolash buzilish sababiga qarab belgilanadi: Anatomik anomaliyalar aniqlansa, jarrohlik amaliyoti talab etilishi mumkin, Gormonal buzilishlarda o‘rinxbosar gormonal davolash (estrogen, progesteron, gonadotropinlar) belgilanadi, Genetik kasalliklarda simptomatik davolash amalga oshiriladi — hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan, Agar sabab tana vaznida bo‘lsa, ovqatlanishni tuzatish

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

zarur, Asabiy charchoq bo'lsa, stressni kamaytirish, dam olish va uyquni normallashtirish muhim

Agar 16–17 yoshgacha hayz ko'rish boshlanmasa, endokrinolog va ginekologdan to'liq tekshiruv o'tish zarur.

Ikkilamchi amenoreyani davolash jarayoni esa aniqlangan sababga bog'liq bo'ladi:

1. Gormonal davolash: Og'zaki kontraseptivlar bilan siklni normallashtirish, Estrogen va progesteron preparatlari, Prolaktin darajasini tuzatish (dopaminomimetiklar)

2. Ovqatlanish va turmush tarzini tuzatish: Vaznni tiklash (anoreksiya yoki semizlikda), Muvozanatli ovqatlanish, qattiq dietalardan voz kechish, O'rtacha jismoniy mashqlar

3. Stressni kamaytirish: Psixolog bilan ishlash, dam olish usullari (yoga, meditatsiya), To'liq uyqu va dam olish

4. Asosiy kasallikni davolash: PTTS bo'lsa — gormonal davolash, Qalqonsimon bez kasalliklarida — tireoid gormonlar, Asherman sindromida — bitishmalarni jarrohlik yo'li bilan olib tashlash

5. Fizioterapiya va xalqona usullar; Ba'zi holatlarda shifokor qon aylanishini yaxshilash uchun fizioterapiya tavsiya qilishi mumkin, Xalq tabobati (o'simlik damlamalari, vitaminlar) faqat shifokor maslahati bilan qo'llanishi mumkin

Amenoreya — bu kasallik emas, balki organizmda nimadir noto'g'ri ketayotganini bildiruvchi signaldir. Birlamchi turi ko'proq genetik va anatomik xususiyatlarga, ikkilamchi turi esa turmush tarzi, gormonal buzilishlar va stressga bog'liq. Agar 3–6 oy davomida hayz ko'rish to'xtagan bo'lsa, shifokorga borishni kechiktirmaslik zarur. Sabab qanchalik erta aniqlansa, siklni tiklash shunchalik oson bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Диагностика и лечение различных форм аменореи/ Черный О.В., Черная И.В. - 2018.

2. Аменорея и олигоменорея. Клинические рекомендации.
3. нарушения менструальной функции/ Охапкин М.Б., Хитров М.В., Ильяшенко И.Н. - 2002.
4. Elmurotova D., Odilova N.J., Jumanov Sh.E., Odilova E.U. Physical basis of proton radiation therapy in medicine // Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice, V.01, Issue 02, 02.2025 ISSN (E): 3061-6964, P.188-196, brightmindpublishing.com, Руминия.
5. Elmurotova D.B., Fayziyeva N.A. Technological support for proton therapy// V.3., Issue 2, 02.2025, ISSN (E): 2938-3811.
6. Элмуротова Д.Б., Арзикулов Ф., Олимов А. Параметры и характеристики импульсной техники // Open Herald: Periodical of Methodical Research, V.3, Issue 2, February-2025 ISSN (E): 2810-6385, C.33-37, Chile, Website: <https://academiaone.org/index.php/6>
7. Nuritdinov I, Eshbekov A.A., Yusupov Q.X, Mussaeva M.A., Elmurotova D.B. Study of luminescent characteristics of chromium-doped crystals // Web of scientist: Int. scientific research journal, ISSN:2776-0976, V.6, Issue 4, April-2025, P.46-57, Indonesia.
<https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/5342/5118>
8. Elmurotova D.B., Kattaxodjayeva D.U., Jaxongirova Sh.U., Yusupova M.B. Physics of remote gamma therapy // Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions, V.3, Issue 4, ISSN(E): 2938-3773, P.50-54, April – 2025, Испания
9. Elmurotova D.B., Shodiev A.A., Mussaeva M.A. Impact of electron radiation on resistivity in YBCO and GdBCO high-temperature superconducting tapes // Web of scientist: international scientific research journal, ISSN: 2776-0979, V.6, Issue 5, may-2025, P.161-173, Indonesia,
<https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/2672>
10. Elmurotova D., Fayziyeva N.A., Bozorov E.H. History of the discovery of radioactivity and x-rays, nuclear explosions explanation of the phenomenon research using interactive methods // Web of Discoveries: Journal of Analysis and

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Inventions, V.3, Issue 5, ISSN(E): 2938-3773, P.61-65, May-2025. Испания
<https://webofjournals.com/index.php/3/article/view/4233>

11. Elmurotova D.B., Ro‘zimatova Sh. Sh., Umarova F.S. Insonning estetik tafakkuri // Лучшие интеллектуальные исследования, ISSN:3030-3680, Ч.45, Т.1, С.130-135, май-2025, Россия. scientific-jl.com/luch/.
12. Elmurotova D.B., Farmonova Sh.Sh., Umarova F.S. Borliq va bo‘shliq: mavjudlik chegaralari haqida tafakkur // Лучшие интеллектуальные исследования, ISSN:3030-3680, Ч.44, Т.5, С.411-416, май-2025, Россия. scientific-jl.com/luch/.
13. Elmurotova D.B., Jo’rayeva R.A, Umarova F.S. “Bilimning chegarasi va rad etilishi”: eskeptitsizm va bilimga bo‘lgan ishonchszilik muammosi // Лучшие интеллектуальные исследования, ISSN:3030-3680, Ч.44, Т.5, С.417-423, май-2025, Россия. scientific-jl.com/luch/.